Abstract. *In the context of global processes and regional integration, migration movements are manifested as an important socio-economic and legal issue on a global scale. Illegal migration not only threatens the internal security of states, but also jeopardizes the legal and social protection of migrants. Therefore, the issues of combating illegal migration at the global and regional levels are becoming increasingly relevant. This article comprehensively analyzes the legal, institutional, and practical mechanisms for combating illegal migration within the framework of the International Organization for Migration (IOM). The main goal of the study is to determine the effectiveness of global and regional programs implemented by the IOM in preventing illegal migration, as well as to assess the possibilities of their integration into national migration policy. The study used methods of legal analysis, a systematic approach, comparative legal analysis, and the study of statistical data, as well as the analysis of international treaties and IOM documents. In the course of the study, the main problems were identified as insufficient information exchange between states and the ineffectiveness of mechanisms for identifying and returning illegal migrants, as well as institutional gaps in the protection of migrants' rights. In conclusion, the author put forward scientifically based proposals for the implementation of digital monitoring systems within the framework of the IOM, strengthening interstate cooperation, expanding reintegration programs, and harmonizing legal mechanisms.*

Keywords: *international cooperation, International Organization for Migration, international migration, illegal migration, safe migration, regulated migration, migrants' rights, return, reintegration*

Kirish

Globalashuv, mehnat bozorlarining xalqaro integratsiyasi va mintaqaviy beqarorlik sharoitida migratsiya jarayonlari keskin jadallashmoqda. Ushbu jarayonlar fonida noqonuniy migratsiya davlatlarning milliy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorligi hamda inson huquqlarini ta'minlash tizimiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu sababli bu muammoga qarshi kurashish mexanizmlarini shakllantirish xalqaro miqyosda ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) bugungi kunda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, migrantlar huquqlarini himoya qilish va davlatlararo hamkorlikni muvofiqlashtirish bo'yicha yetakchi institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola XMT doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini huquqiy va institutsional jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Metodlar

Tadqiqotda tizimli yondashuv, huquqiy tahlil va qiyosiy-huquqiy metodlar qo'llandi. XMTning rasmiy hujjatlari, xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar hamda statistik ma'lumotlar asosiy manbalar sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, ayrim davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi siyosati va XMT bilan hamkorlik tajribasi solishtirma tahlil asosida o'rganildi. Bu usullar noqonuniy migratsiyaga qarshi xalqaro mexanizmlarning real samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar

Xalqaro migratsiya tashkiloti (*International Organization for Migration* – IOM) bugungi kunda migratsiya sohasida yetakchi xalqaro institut hisoblanadi (Andrijasevic & Walters, 2010). XMTning tarixi 1951-yilga borib taqaladi. U dastlab Yevropadan ko'chib kelayotganlarning harakatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha vaqtinchalik Hukumatlararo qo'mita sifatida tashkil etilgan (Ashutosh & Mountz, 2011). Bir necha oy o'tib, qo'mita Yevropa migratsiyasi bo'yicha hukumatlararo qo'mita deb nomlandi. 1980-yilda u Migratsiya bo'yicha hukumatlararo qo'mita

bo'ldi va 1989-yilda hozirgi Xalqaro migratsiya tashkiloti nomini oldi (Barber & Bryan, 2018). Ya'ni Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) 1951-yilda Yevropaga muhojirlarni ko'chirishga doir muvaqqat hukumatlararo tashkilot sifatida tashkil etilgan bo'lib, u insonparvar va tartibli migratsiya migrantlarga ham, jamiyatga ham foyda keltiradi, degan prinsipga amal qiladi. XMT migratsiya bo'yicha yetakchi xalqaro tashkilot sifatida xalqaro hamjamiyatdagi barcha sheriklar bilan hamkorlik qiladi. Tashkilotning rasmiy sayti ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda 174 ta davlat tashkilot a'zosi hisoblanadi (IOM, 2026). Shu jumladan, O'zbekiston ham mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan. Tashkilot noqonuniy migratsiya, odam savdosi va xavfli migratsiya yo'nalishlariga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston bilan 2003-yildan buyon hamkorlik qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XMT doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish axborot almashinuvi, texnik yordam, qayta integratsiya dasturlari va davlatlararo muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilmoqda. XMT tomonidan ishlab chiqilgan migration monitoring tizimlari migrantlar oqimini nazorat qilish va noqonuniy harakatlarni aniqlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, qaytgan migrantlarni ijtimoiy va iqtisodiy reintegratsiya qilish dasturlari noqonuniy migratsiya takrorlanishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Muhokama

Aytish joizki, so'nggi o'n yilliklarda global migratsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib, xalqaro hamjamiyat oldida yangi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, noqonuniy migratsiya bu jarayonlarning eng murakkab va xavotirli ko'rinishlaridan biri bo'lib, u na faqat alohida davlatlarning milliy xavfsizligiga, balki mintaqaviy va global barqarorlikka ham tahdid solmoqda. Shu bois ilmiy adabiyotlarda ham, xalqaro huquqiy hujjatlarda ham noqonuniy migratsiya tobora ko'proq

transmilliy xavf sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, hozirgi globalashuv sharoitida dunyo hamjamiyati davlatlardagi migratsiya oqimlari bilan bog'liq keskin vaziyatlar yechimini topishga urinishlarni muvofiqlashtirish va bu yo'nalishdagi xalqaro hamkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillash-tirish zaruriyatiga duch keldi (Akhmedov, 2016). Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda taxminan 281 million xalqaro migrant mavjud bo'lib, bu umumiy aholining 3,6 foizini tashkil etadi (Asmandiyarova, 2008). Migratsiya jarayonining xalqaro doiradagi roli va ahamiyati qanchalik muhim ekanligini shu raqamdan ham ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda migratsiyaning ko'rinish-laridan biri bo'lgan noqonuniy migratsiya tushunchasi, mazmuni, shakli, kelib chiqishi xususida to'xtalsak. Noqonuniy migratsiya tushunchasi ilmiy va maxsus adabiyotlar-da turlicha ifodalangani bois hozirgacha uning yagona ta'rifi mavjud emas. Xususan, M.I. Barannik (2002) noqonuniy migratsiyani shaxsning o'zga mamlakatga borishi yoki yashash manzilini tark etishi, o'z hududiga xo-rijiy fuqarolarni noqonuniy yo'l bilan kiritishi, tranzit qilishi va qonunga xilof ravishda bosh-qa mamlakatga chiqishi bilan bog'liq jarayon sifatida tariflaydi. Professor V.N. Sumarokov (2014) esa shaxsning chet elga chiqishi va ikkinchi mamlakat hududida bo'lishi qonu-niy asoslarda vujudga kelsa-da, biroq uning mamlakatga qonunga xilof ravishda kirishini ham noqonuniy migratsiya sifatida baholagan. Tadqiqotchi B.I. Egamberdiyev esa noqonuniy migratsiyani O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonun-larida belgilangan respublika hududiga kirish, bo'lish va undan chiqish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tish tar-tiblarini buzgan holda harakatlanishi sifatida ta'riflagan (Egamberdiyev, 2021).

Globalashuv, mintaqalararo iqtisodiy tafovutlar hamda qurolli nizolar migratsiya

oqimlarining keskin oshishiga olib keldi. Shu bilan birga, noqonuniy migratsiyaning kengayib borishi davlatlarning suvereniteti, milliy xavfsizligi va jamoat tartibiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Noqonuniy migratsiya inson huquqlarining qo'pol buzilishi, odam savdosi, migrantlarni noqonuniy olib o'tish va transmilliy jinoyatchilik bilan uzviy bog'liq. Mazkur sharoitda Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) migratsiya jarayonlarini xavfsiz, tartibli va qonuniy asosda boshqarishni ta'minlovchi yetakchi xalqaro institut sifatida faoliyat yuritmoqda. XMT faoliyati noqonuniy migrat-siyaga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, huquqiy va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish hamda migrantlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlarda XMT tavsiyalarining to'liq ijro etilmasligi, axborot tizimlarining uyg'unlashmaganligi va huquqiy mexanizmlar-ning yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi samaradorlikni pasaytirmoqda. Bundan tash-qari, noqonuniy migrantlar huquqlarini himo-ya qilish mexanizmlarining ba'zi mintaqalarda sust ishlashi ham muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli XMT doirasida raqamli axborot platformalarini rivojlantirish va davlatlar o'rtasida majburiy hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

XMTning xalqaro-huquqiy maqomi va va-kolatlari

XMT 1951-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda BMT tizimiga kiruvchi ixtisos-lashgan tashkilot sifatida migratsiya masala-larida global muvofiqlashtiruvchi rolni baja-radi. Tashkilot ustavida uning maqsadi mig-ratsiya jarayonlarini inson huquqlari, davlat suvereniteti va xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda boshqarishdan iboratligi qayd etilgan. XMT faoliyati BMTning Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha global shartnomasi bilan uyg'un holda olib boriladi. Mazkur hujjat noqonuniy migratsiyani ka-maytirish, migrantlarni ekspluatatsiyadan himoya qilish va qonuniy migratsiya kanalla-

rini kengaytirish orqali migratsiyani boshqarishni nazarda tutadi (United Nations, 1990).

Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda XMTning asosiy mexanizmlari

XMTning noqonuniy migratsiyaga qarshi faoliyati kompleks xarakterga ega bo'lib, uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchidan, profilaktik mexanizmlar. XMT migrantlarni noqonuniy migratsiyaning xavflari haqida xabardor qilish, soxta ish takliflari va odam savdosining oldini olishga qaratilgan axborot kampaniyalarini yuritadi. Bu usul migratsiya oqimlarining jinoyatchi tarmoqlar ta'siriga tushib qolish ehtimolini kamaytiradi.

Ikkinchidan, institutsional va huquqiy yordam. XMT davlatlarga migratsiya qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish, chegara boshqaruvi va hujjat tekshiruvi tizimini mustahkamlashda texnik ko'mak beradi. Bu noqonuniy migratsiyaning tashkiliy asoslarini zaiflashtiradi.

Uchinchidan, ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya dasturlari. Ushbu mexanizm noqonuniy migrantlarning insoniy qadr-qimmatini saqlagan holda o'z vataniga qaytishini ta'minlaydi va ularning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlaydi.

XMT faoliyatining inson huquqlari bilan uyg'unligi va xalqaro hamkorlik

XMT yondashuvi faqat xavfsizlikni emas, balki migrantlar huquqlarini himoya qilishni ham ustuvor deb biladi. Noqonuniy migrantlar ko'pincha zo'rvonlik, majburiy mehnat va ekspluatatsiya qurboniga aylanadi. XMTning huquqiy va gumanitar dasturlari ularni himoya qilish, huquqiy maslahat berish va ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Bu yondashuv noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishni repressiv emas, balki insonparvar yo'nalishda olib borishga imkon beradi.

O'zbekiston keyingi yillarda global migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda va bu jarayonlar uning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti hamda xalqaro maydondagi roliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Global miqyosda mehnat migratsiyasini tartibga solish ko'plab

xalqaro tashkilotlar, normativ hujjatlar va ikki tomonlama hamkorlik doirasida amalga oshiriladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Jahon Banki va boshqa nufuzli tuzilmalar tomonidan qabul qilingan deklaratsiyalar, konvensiyalar va qo'llanmalar xalqaro huquqda migratsiya sohasini, xususan, noqonuniy migratsiyani tartibga solishda muhim huquqiy asos vazifasini bajaradi. Eng muhim hujjatlardan biri BMTning 1990-yildagi Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi bo'lib, u mehnat migrantlarining inson huquqlarini, ijtimoiy himoyasini va adolatli ish sharoitlarini kafolatlaydi (United Nations, 1990). Bundan tashqari, Xalqaro mehnat tashkilotining 97- va 143-sonli konvensiyalari mehnat migratsiyasi jarayonini tartibga solish, xavfsiz va qonuniy migratsiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (International Labour Organization, 1949, 1975). Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya" konsepsiyasi hamda *Global Migration Compact* (Migratsiya bo'yicha global kelishuv) davlatlarni migratsiya oqimlarini adolatli va tizimli boshqarishga chaqiradi (United Nations, 2000). Bu hujjatlar doirasida davlatlar migrantlarning huquqlarini hurmat qilish, migratsiya xavf-xatarlarini kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, reintegratsiya va qaytish mexanizmlarini takomillashtirish majburiyatini oladilar.

2021-yildan boshlab Jahon Banki, XMT hamda BMTning qo'shma hisobotlarida O'zbekiston migratsiya siyosatini izchil takomillashtirayotgan davlatlar qatorida e'tirof etilmoqda. Masalan, 2022-yilgi "World Development Report"da O'zbekistonning xalqaro migratsiya oqimlaridagi roli, qabul qilinayotgan chora-tadbirlari va migrantlar huquqlarining himoyasi ijobiy baholangan. Shuningdek, XMT tomonidan ishlab chiqilgan "Fair Recruitment Initiative" dasturi

doirasida O'zbekistonning hamkorlik dasturlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu tashabbuslar xalqaro miqyosda adolatli yollash, majburiy mehnatning oldini olish, yollovchilar ustidan nazoratni kuchaytirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 26-dekabr kuni "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonun imzolandi (Egamberdiev, 2021). Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish, mazkur tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekistonga bu boradagi qator imtiyozlarni berdi va mamlakat XMTning texnik ko'mak dasturlarida ishtirok etib kelmoqda (United Nations, 2018). Xalqaro miqyosdagi bunday hujjatlar, tamoyillar va dasturlar asosida O'zbekistonda migratsiyani tartibga solishga oid milliy qonunlar, farmonlar va qarorlar shakllanmoqda. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, institutsional salohiyatni oshirish va migratsiya jarayonlarini izchil muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan migratsiya sohasidagi muhim hujjatlar – Xalqaro mehnat tashkilotining 97- va 143-sonli konvensiyalari, 1990-yil 18-dekabrda qabul qilingan Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyadir (Qodirova, 2015).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida mehnat migratsiyasi hodisasi alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, transmilliy migratsiya oqimlarining kengayishi, mamlakat ichidagi demografik o'zgarishlar va mehnat bozorida muvozanatsizliklar O'zbekistonning mehnat migratsiyasi bilan bog'liq vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat, o'z navbatida, mehnat migratsiyasini tartibga solishning

huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Mamlakatimizda mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosati, bir tomondan, fuqarolarning xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u ichki mehnat bozorini himoya qilish, migrantlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, noqonuniy migratsiya oqimlariga qarshi kurashish va mehnat migratsiyasini adolatli, qonuniy va xavfsiz bo'lishiga xizmat qiladi.

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot doirasida olib borilayotgan faoliyat noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy va samarali modelini shakllantirmoqda. XMTning huquqiy, institutsional va amaliy mexanizmlari migratsiya jarayonlarini tartibga solish, migrantlar huquqlarini himoya qilish va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishni uyg'unlashtirish imkonini beradi (G'aniyev et al., 2024). Shu bois XMT bugungi kunda global migratsiya boshqaruvining ajralmas tayanchi sifatida e'tirof etiladi. XMT BMT tizimiga kiruvchi tashkilot sifatida davlatlarga migratsiyani tartibli, xavfsiz va qonuniy boshqarish masalalarida ko'maklashadi. Tashkilot noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishni repressiv emas, balki inson huquqlari, profilaktika va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida olib borishi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bir nechta takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchi, migratsiya jarayonlarini raqamli monitoring tizimlari orqali nazorat qilishni kengaytirish lozim. XMT tavsiyalariga ko'ra, migratsiya oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi axborot tizimlari noqonuniy migratsiya xavfini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Shu sababli davlatlar o'rtasida migratsiya ma'lumotlari almashinuvi bo'yicha yagona elektron platforma yaratish taklif etiladi. Bunday tizim migratsiya oqimlarini tahlil qilish, noqonuniy kanallarni aniqlash hamda tezkor choralar ko'rishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, noqonuniy migratsiyani kamaytirish uchun xavfsiz va qonuniy migratsiya yo'llarini kengaytirish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qonuniy mehnat migratsiyasi imkoniyatlari cheklangan davlatlarda noqonuniy migratsiya darajasi yuqori bo'ladi. Shu bois XMT tajribasiga asoslanib, davlatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi bo'yicha kvotalarni oshirish, ikki tomonlama mehnat shartnomalarini ko'paytirish hamda migrantlarni rasmiy ishga joylashtirish tizimini soddalashtirish taklif etiladi.

Uchinchidan, migrantlarning huquqiy savodxonligini oshirish ham muhim profilaktik choradir. Xalqaro migratsiya tashkiloti amaliyotida migrantlar uchun axborot markazlari va maslahat xizmatlarini tashkil etish orqali noqonuniy migratsiya xavfini kamaytirish samarali natija bergan. Shu sababli migrantlarni xorijga chiqishdan oldin majburiy axborot-treninglardan o'tkazish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, qaytib kelgan migrantlarni reintegratsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. XMT tomonidan amalga oshirilayotgan "ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya" dasturlari noqonuniy migratsiyani kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tajribaga asoslanib, qaytgan migrantlar uchun kasb-hunar o'qitish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv dasturlarini kengaytirish taklif etiladi.

Xulosa

Noqonuniy migratsiyaning oldini olishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchay-

tirish va migratsiya jarayonlarini tartibga solishda Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan integratsiyalashgan yondashuvni milliy darajada qo'llash maqsadga muvofiq. Shu sabab migratsiya jarayonlarini raqamli monitoring tizimlari orqali nazorat qilish, noqonuniy migratsiyani kamaytirish uchun xavfsiz va qonuniy migratsiya yo'llarini kengaytirish takliflari ilgari surildi. Bunga davlatlar o'rtasida migratsiya ma'lumotlari almashinuvi bo'yicha yagona elektron platforma yaratish, davlatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi bo'yicha kvotalarni oshirish, ikki tomonlama mehnat shartnomalarini ko'paytirish hamda migrantlarni rasmiy ishga joylashtirish tizimini soddalashtirish orqali erishish mumkin. Shuningdek, migrantlarning huquqiy savodxonligini oshirish ham muhim profilaktik chora ekanligi, buning uchun ularni majburiy axborot-treninglardan o'tkazish lozimligi qayd etildi. Qaytib kelgan migrantlarni reintegratsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish, ya'ni qaytgan migrantlar uchun kasb-hunar o'qitish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv dasturlarini kengaytirish takliflari berildi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro migratsiya tashkiloti tajribasiga asoslangan raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, qonuniy migratsiya yo'llarini kengaytirish, migrantlar huquqiy savodxonligini oshirish hamda reintegratsiya mexanizmlarini rivojlantirish noqonuniy migratsiyani samarali kamaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Akhmedov, M. N. (2016). *Protivodeystvie nelegalnoy migratsii: Ugolovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty* [Countering illegal migration: Criminal law and criminological aspects] [Abstract of PhD Dissertation]. All-Russian State University of Justice.
2. Andrijasevic, R., & Walters, W. (2010). The International Organization for Migration and the international government of borders. *Society and Space*, 28(6), 977-999. <https://doi.org/10.1068/d1509>

3. Ashutosh, I., & Mountz, A. (2011). Migration management for the benefit of whom? Interrogating the work of the International Organization for Migration. *Citizenship Studies*, 15(1), 21–38. <https://doi.org/10.1080/13621025.2011.534914>
4. Asmandiyarova, N. R. (2008). *Borba s nezakonnoy migratsiyey na regionalnom urovne: Ugolovno-pravovoy i kriminologicheskiy aspekty (po materialam Respubliki Bashkortostan) [Fight against illegal migration at the regional level: Criminal law and criminological aspects (based on the materials of the Republic of Bashkortostan)]* (Abstract of Candidate dissertation). Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation.
5. Barannik, M. I. (2002). *Kriminologicheskie i pravovye problemy borby s nezakonnoy migratsiyey [Criminological and legal problems of the fight against illegal migration]*. Vladivostok Center for the Study of Organized Crime.
6. Barber, P. G. & Bryan, C. (2018). International Organization for Migration in the field: “Walking the talk” of global migration management in Manila. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 44(10), 1725–1742. <https://doi.org/10.1080/1369183X.2017.1354068>
7. Barnett, M. N., & Finnemore, M. (1999). The politics, power, and pathologies of international organizations. *International Organization*, 53(4), 699–732. <https://doi.org/10.1162/002081899551048>
8. Egamberdiev, B. I. (2021). *Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyatini takomillashtirish [Improving the activities of internal affairs bodies related to migration processes]* (Abstract of Doctoral dissertation). Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. <https://justy.uz/books/ichki-ishlar-organlarining-migratsiya-jarayonlariga-doir-faoliyatini-takomillashtirish/>
9. G‘aniyev, F., G‘aniyeva, G., & Shukridillayeva, S. (2024). Migratsiya tushunchasi, turlari va O‘zbekistonda migratsiya huquqi hamda ularning sotsiologik talqini [The concept of migration, its types and migration law in Uzbekistan and their sociological interpretation]. *Science and Education*, 5(1), 175–181. <https://cyberleninka.ru/article/n/migratsiya-tushunchasi-turlari-va-o-zbekistonda-migratsiya-huquqi-hamda-ularning-sotsiologik-talqini>
10. International Labour Organization. (1949, July 1). *Migration for employment convention (No. 97)*. Normlex.
11. International Labour Organization. (1975, June 24). *Migration in abusive conditions and the promotion of equality of opportunity and treatment of migrant workers convention (No. 143)*. Normlex.
12. International Organization for Migration [IOM]. (2026). <https://www.iom.int/member-states>
13. Qodirova, Z. A. (2015). *Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda mehnat migratsiyasining xalqaro miyosda tartibga solinishi [International regulation of labor migration in labor-exporting countries]*. *Economics and Innovative Technologies*, (3), 1–9.
14. Sumarokov, V. N. (2014). Nelegalnaya migratsiya kak ugroza natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii: ponyatie, sodержanie, prichiny vozniknoveniya, napravleniya protivodeystviya [Illegal migration as a threat to the national security of the Russian Federation: Concept, content, causes, and countermeasures]. *Transport Business in Russia*, (1).
15. United Nations. (1990, December 18). *International convention on the protection of the rights of all migrant workers and members of their families*. United Nations General Assembly. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>
16. United Nations. (2000, November 15). *Protocol against the smuggling of migrants by land, sea and air, supplementing the United Nations convention against transnational organized crime*. United Nations Office on Drugs and Crime.
17. United Nations. (2018, December 19). *Global compact for safe, orderly and regular migration*. United Nations General Assembly. https://www.un.org/en/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/73/195
18. United Nations. (1990). *International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families*. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)